

ALDA MERINI SHE'RIYATIDA DINIY OBRAZLARNING LINGVISTIK VA BADIY TALQINI

Diyora Shodyor qizi Botirova,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs magistranti

E-mail: diyorasultanova7@gmail.com

O'zDJTU katta o'qituvchisi B.S.Ergashova taqrizi asosida

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy Italiya she'riyatining yirik namoyandasi Alda Merini ijodida diniy obrazlarning lingvistik va badiiy talqini tahlil qilingan. Shoirra poetikasida diniy ramzlarning qo'llanilishi uning individual ruhiy kechinmalari, ekzistensial iztiroblari va falsafiy dunyoqarashi bilan dialektik aloqadorlikda ekanligi asoslangan. Xususan, shoiraning "La Terra Santa" kabi fundamental to'plamlaridagi bibliy timsollar, Xudo konsepsiyasi, sukunat va faryod metaforalari lingvopoetik aspektida tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari Merini ijodida diniy diskurs nafaqat estetik-dekorativ vosita, balki shaxsiy hayotiy dramalarning metafizik ifodasi ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Alda Merini, diniy obraz, lingvopoetika, metafora, ramz, diniy diskurs, Italiya she'riyati, bibliy timsollar, lingvistik semantika.

Abstract. This article analyzes the linguistic and artistic interpretation of religious imagery in the poetry of Alda Merini, a prominent figure in contemporary Italian literature. The study establishes that the use of religious symbols in Merini's poetics is dialectically intertwined with her individual psychological experiences, existential suffering, and philosophical worldview. In particular, biblical symbols, the concept of God, and metaphors of silence and outcry in her fundamental collections, such as *La Terra Santa*, are examined from a linguopoetic perspective. The research findings confirm that religious discourse in Merini's work functions not merely as an aesthetic or decorative tool, but as a metaphysical expression of profound personal life dramas.

Keywords: Alda Merini, religious imagery, linguopoetics, metaphor, symbol, religious discourse, Italian poetry, biblical motifs, linguistic semantics.

Аннотация. В данной статье анализируется лингвистическая и художественная интерпретация религиозных образов в поэзии крупнейшего представителя современной итальянской литературы Альды Мерини. Обосновывается, что использование религиозной символики в поэтике Мерини находится в диалектической взаимосвязи с её индивидуальными психологическими переживаниями, экзистенциальными страданиями и философским мировоззрением. В частности, на материале фундаментальных сборников, таких как *La Terra Santa*, в лингвопоэтическом аспекте исследуются библейские символы, концепция Бога, а также метафоры тишины и крика. Результаты исследования подтверждают, что религиозный дискурс в творчестве Мерини является не только эстетико-декоративным средством, но и метафизическим выражением глубоких личных жизненных драм.

Ключевые слова: Альда Мерини, религиозный образ, лингвопоэтика, метафора, символ, религиозный дискурс, итальянская поэзия, библейские мотивы, лингвистическая семантика.

Kirish. Italiya adabiyotining XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi taraqqiyot bosqichida ayollar ijodi alohida estetik fenomen sifatida namoyon bo'ldi. Bu jarayonda Alda Merini (1931–2009) o'zining betakror poetik uslubi va chuqur ontologik iztiroblarni aks ettirgan merosi bilan markaziy o'rinni egallaydi. Merini ijodining lingvopoetik asosi diniy ramzlar, Injil obrazlari hamda inson va Iloh munosabatining paradoksal talqiniga qurilgan.

Merini poetikasi "og'riq tili" bilan yo'g'rilgan bo'lib, unda diniy timsollar – Masihning azoblari, xoch, gunoh va tavba tushunchalari – shoiraning shaxsiy hayot yo'lidagi ziddiyatli lahzalar bilan proeksiyalanadi. Uning lirikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, diniy obrazlar tizimi matnning badiiy to'qimasida markaziy o'rin tutadi va bu obrazlar orqali "sacro" (muqaddaslik) hamda "profano" (dunyoviylik) o'rtasidagi chegara yo'qoladi. Aynan mana shu jihat shoira uslubining lingvistik o'ziga xosligini belgilaydi: diniy terminologiya shoira qalamida lirik hissiyotning eng yuqori nuqtasini ifodalovchi stilistik dominantaga aylanadi.

Shoira she'riyatida diniy obrazlar shunchaki an'anaviy dogmatik tushunchalar emas, balki shaxsiy hayotiy sinovlar, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy inqirozlar bilan sintezlashgan murakkab semantik strukturadir. Ayniqsa, uning "La Terra Santa" (Muqaddas Yer, 1984) to'plamida ruhiy shifoxonadagi kechinmalar bibliy ramzlar tizimi orqali modellashtiriladi. Shoira uchun Xudo – ham azob beruvchi, ham najotkor, ham insonning ichki faryodini eshituvchi yagona "Sukunatdagi Sub'yekt"dir.

Ushbu maqolada Alda Merini she'riyatidagi diniy obrazlarning lingvopoetik tabiati nafaqat italyan tili materiali, balki umuminsoniy badiiy tafakkur tadriji nuqtayi nazardan ham ko'rib chiqiladi. Shoira asarlaridagi bibliy leksikaning qo'llanilishi, ularning transformatsiyasi va matn ichidagi konnotativ ma'nolari tahlili bugungi kun tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun o'ta muhimdir. Chunki Merini ijodini o'rganish – bu tildagi diniy ramzlarning badiiy matnda qanday qilib yashash va azobdan qutulish strategiyasiga aylanishini tadqiq etish demakdir. Mazkur izlanish nafaqat shoira olamini, balki zamonaviy she'riyatda diniy diskursning lingvistik imkoniyatlarini yangi qirradan ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Merini she'riyatidagi diniy obrazlarni lingvistik va badiiy jihatdan o'rganish shoiraning individual-mualliflik olam manzarasini (MAP – mualliflik dunyo manzarasi) dekodlashtirish imkonini beradi. Diniy metaforalarning lingvopoetik tahlili nafaqat matnning ichki mohiyatini, balki uning o'zbek tilidagi ekvivalentligini ta'minlashda tarjimashunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Alda Merini ijodini diniy-falsafiy va lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish zamonaviy Yevropa adabiyotshunosligida o'ziga xos an'anaga ega. Eugenio Borgna o'zining "Eugenio Borgna racconta Alda Merini" (2002) asarida shoira poetikasidagi "sukunat" (*silenzio*) va "faryod" (*urlo*) metaforalarini ruhiy iztiroblarning sakral ramzlari sifatida tahlil qiladi. Borgna fikricha, Merini tili – bu og'riqning lisoniy transformatsiyasi bo'lib, unda diniy terminologiya psixologik holatlarni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Pierangela Di Lucchio o'zining "La parola ferita" (2008) nomli fundamental tadqiqotida diniy timsollarning ayol ruhiyati va ona arxetipi bilan aloqadorligini yoritadi.

Tadqiqotchi Xudo obrazining Merini asarlarida ko'p hollarda antropomorfik xususiyat kasb etishini, ya'ni Iloh hamdard suhbatdosh darajasiga tushirilishini o'ziga xoslik sifatida qayd etadi. Giovanna Rosa esa shoira biografiyasidagi ruhiy shifoxona davrini bibliy "Arosat" (Purgatorio) va "Do'zax" (Inferno) tushunchalari bilan qiyoslaydi.

O'zbek adabiyotshunosligi va tarjimashunosligida ham poetik matnlardagi diniy-metaforik birliklarni o'girish muammolari G'.Salomov va N.Komilov asarlarida ko'p bor ta'kidlangan. Biroq Merini ijodi misolida italyan diniy diskursining lingvistik talqini hali maxsus tadqiqot ob'yektiga aylantirilmagan. Bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy metodologiyasi lingvopoetik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi. Maqolada Alda Merini she'riyatida diniy obrazlarning qanday shaklda ifodalangani, ularning semantik yuklamasi va badiiy funksiyasi lingvistik nuqtayi nazardan o'rganiladi. *Lingvopoetik tahlil metodi.* Ushbu metod orqali Merini she'rlarida uchraydigan diniy obrazlar – Xudo, Iso, ruh, sukunat, najot, gunoh, azob kabi tushunchalar poetik kontekstda qanday qo'llanganini ochib berish maqsad qilingan. Bu jarayonda metafora, antonimiya, sinonimiya, ramz va intertekstual aloqalar kabi vositalar aniqlanadi. *Qiyosiy tahlil metodi.* Merini ijodida diniy obrazlarning qo'llanishi boshqa italyan shoirlari (masalan, Quasimodo yoki Ungaretti) she'riyati bilan qiyoslanadi. Bu orqali Merining o'ziga xosligi va diniy ramzlarni talqin qilishdagi individual uslubi ko'rsatiladi. *Tarjimashunoslik yondashuvi.* Diniy obrazlarning tarjimada o'zbek tilida qanday aks ettirilishi ham tahlil qilindi. Chunki diniy-metaforik birliklar ko'p hollarda ekvivalent tarjima topishda qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli Newmark va Catfordning tarjimashunoslik nazariyalaridan foydalanildi. *Biografik yondashuv.* Merining shaxsiy hayoti, ruhiy kasallik tajribalari, diniy izlanishlari va psixologik iztiroblari uning diniy obrazlardan foydalanishida asosiy omil sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqot materiali sifatida Merining quyidagi to'plamlari tanlab olindi:

- *La Terra Santa* (1984)
- *Vuoto d'amore* (1991)
- *Ballate non pagate* (1995)
- *L'altra verità. Diario di una diversa* (1986)

Metodologik asos sifatida esa lingvistika va adabiyotshunoslikdagi nazariy manbalar, jumladan J. Lyonsning *Semantics* (1981), T. De Mauroning *Storia linguistica dell'Italia unita* (1963) hamda E. Borgnaning Alda Merini haqidagi ilmiy izlanishlari foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur tadqiqot Alda Merini she'riyatidagi diniy obrazlarning shunchaki lingvistik tavsifi emas, balki ularning lisoniy va badiiy mohiyatini ochishga qaratilgan kompleks yondashuvga tayanadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida, avvalo, **lingvopoetik tahlil tamoyillari** tanlab olindi. Bu shoironing she'riy

matnlaridagi diniy leksikani shunchaki lugʻaviy birlik sifatida emas, balki estetik qiymatga ega boʻlgan "poetik semalar" sifatida tadqiq etish imkonini berdi. Ushbu yondashuv orqali Merini ijodiga xos boʻlgan soʻz oʻyinlari va diniy terminlarning individual-mualliflik maʼnolari tahlil qilindi.

Diniy obrazlarning ichki strukturasi yoritishda **komponent tahlil metodining** oʻrni beqiyos boʻldi. Masalan, shoira qoʻllagan "sukunat" (*silenzio*) tushunchasining semantik tarkibi oʻrganilganda, uning anʼanaviy "jimlik" maʼnosidan tashqari, "ilohiy muloqot", "ruhiy ogʻriq" va "ekzistensial yolgʻizlik" kabi semik elementlar bilan boyiganligi aniqlandi. Bu esa bizga shoira dunyoqarashining lingvistik modelini yaratishda qoʻl keldi.

Shu bilan birga, Merini poetikasidagi diniy diskursning oʻziga xosligini belgilash uchun **qiyosiy-tipologik metoddan** foydalanildi. Bunda shoira metaforik tizimi Italiya "germetik" sheʼriyatining yirik vakillari Giuseppe Ungaretti va Salvatore Quasimodo uslublari bilan solishtirildi. Bunday qiyos Merining anʼanaviy diniy ramzlarni naqadar shaxsiy va "ogʻriqli" tarzda transformatsiya qilganini yaqqol koʻrsatib berdi.

Tadqiqotning yana bir muhim qirrasini **biografik va psixologik yondashuvlar** sintezidan iboratdir. Merini ijodida Bibliya syujetlari va diniy mifologizmlar shoira shaxsiy hayoti va "ruhiy azoblar falsafasi" bilan sintezlashib ketadi. Shu sababli, matndagi yashirin ishoralar va diniy alluzyalarni ochib berishda germenistik tahlil yordamida shoira dunyoqarashining diniy va dunyoviy qutblari orasidagi mantiqiy bogʻliqliklar aniqlanadi. Bu jarayonda **biografik yondashuv** metodidan foydalanish zarurati tugʻiladi, chunki Merini uchun din bu – nazariy eʼtiqod emas, balki uning shaxsiy iztiroblari, ruhiy kasallik bilan kurashi va "ilohiy ishq" tushunchasining jismoniy hislar bilan toʻqnashuvidir. Ushbu omillar diniy obrazlarning lingvistik tanlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatgan fundamental elementlar sifatida koʻrib chiqiladi. Alda Merining murakkab hayot yoʻli, xususan, oʻn yildan ortiq ruhiy shifoxonadagi kechinmalari uning diniy leksikasini belgilovchi asosiy ekstralingvistik omil sifatida qaraldi. Bu jarayonda biz Peter Newmark va J. Lyons kabi olimlarning semantik va tarjimashunoslik nazariyalariga tayanib, diniy-metaforik birliklarning kontekstual yukini hamda ularning oʻzbek tili muhitidagi lingvokulturologik muqobillari masalasini oʻrgandik.

Shuningdek, maqolada **qiyosiy-stilistik metod** qoʻllaniladi. Bu usul orqali Alda Merining diniy obrazlarni qoʻllash mahorati italyan adabiyotining boshqa vakillari ijodi bilan parallellikda oʻrganilib, uning anʼanaviy katolik sheʼriyatidan farq qiluvchi, oʻta subyektiv va provokatsion badiiy uslubi yoritiladi. Tadqiqotning yakuniy metodologik halqasini **lingvokulturologik va tarjimashunoslik tahlili** tashkil etadi. Bu bosqichda diniy-metaforik birliklarning bir tildan ikkinchi tilga (italyanchadan oʻzbekchaga) koʻchishidagi ekvivalentlik muammolari, tushunchalarning madaniy qatlamlari va estetik

yuklamasining saqlanish darajasi Newmark va Catford kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida tadqiq etiladi. Umumlashtirib aytganda, qo‘llanilgan barcha metodlar shoira ijodidagi diniy obrazlarning ham til, ham badiiy tafakkur mahsuli sifatidagi yaxlit tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Alda Merini she‘riyatidagi diniy obrazlarning lingvistik tabiati shundan iboratki, ularda "sakral" (muqaddas) va "profan" (dunyoviy) tushunchalar o‘rtasidagi an’anaviy iyerarxiya buziladi. Shoira asarlarida Masih obrazi ko‘pincha insoniy azobning eng yuqori nuqtasi sifatida gavdalanadi. Bu yerda lingvistik nuqtayi nazardan **antropomorfizm** hodisasi kuzatiladi: Ilohiy shaxslarga xos bo‘lgan sifatlar insoniy dard, tan jarohati va ruhiy tushkunlik leksikasi bilan qorishtiriladi. Masalan, uning "Corpo d'amore" turkumida Xudo bilan muloqot nafaqat ruhning, balki tananing ham ehtiyoji sifatida talqin etiladi. Bu esa matnda diniy terminlarning somatik (tana bilan bog‘liq) leksika bilan intensiv qo‘llanilishiga olib keladi. Natijada, diniy obrazlar abstrakt tushunchadan konkret, sezgi a‘zolari orqali qabul qilinadigan real poetik subyektga aylanadi.

Empirik material sifatida tanlangan to‘plamlar (xususan, "*La Terra Santa*") dastlab leksik seleksiya qilindi, so‘ngra ularning matn ichidagi konnotativ ma‘nolari tahlil etildi. Shu tariqa, tadqiqotimiz nazariy xulosalardan aniq amaliy natijalar sari – matnning ichki mohiyatini dekodlashtirish bosqichlari orqali amalga oshirildi.

Alda Merini she‘riyatidagi diniy obrazlarning lingvistik va badiiy tabiatini tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelindiki, shoira ijodida diniy diskurs shunchaki an’anaviy e‘tiqod ifodasi emas, balki insoniy borliqning eng murakkab nuqtalarini yorituvchi metafizik vositadir. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, Merini poetikasidagi diniy ramzlar uning shaxsiy hayotiy dramalari, ayniqsa, ruhiy iztirob va ijtimoiy yakkalanish tajribalari bilan dialektik bog‘liqlikda rivojlangan. Bu jarayonda shoira bibliy timsollarni o‘zining individual kechinmalari prizmasidan o‘tkazib, ularga yangi semantik yuklama bag‘ishlaydi.

Xususan, Merini olam manzarasida Iloh bilan muloqot – bu jismoniy sukunat va ruhning ichki faryodi o‘rtasidagi muvozanatda namoyon bo‘ladi. Shoira uchun "sukunat" tushunchasi so‘zning tugashi emas, balki so‘zdan ustunroq bo‘lgan yuqori semantik qatlam bo‘lib, u orqali lirik qahramon o‘zining ilohiy aslini kashf etadi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida "telbalik" tushunchasining diniy-metaforik transformatsiyasi aniqlandi: Merini uchun bu holat tibbiy diagnoz emas, balki jamiyat zanjirlaridan xalos bo‘lish va Xudo bilan "o‘z tilida" gaplashish imkonini beruvchi sakral vatan sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, olib borilgan tahlillar Merini poetikasida "**muqaddaslik**" (**sacro**) va "**dunyoviylik**" (**profano**) o‘rtasidagi chegara lingvistik vositalar yordamida butunlay yo‘q qilinganligini isbotlaydi. Shoira uchun tana azobi va ruhning ilohiy ishtiyoqi bir xil lisoniy qatlamda ifodalanadi, bu esa uning uslubiga xos bo‘lgan somatik (tana bilan bog‘liq)

diniylikni yuzaga keltiradi. Bunday yondashuv zamonaviy italyan she'riyatida teologik tushunchalarning inson psixologiyasi bilan naqadar chuqur sintezlashishi mumkinligini ko'rsatuvchi muhim indikatoridir.

Lingvopoetik tahlillarimiz shuni tasdiqladiki, italyan poetik matnidagi diniy antonimlar (nur va zulmat, jannat va do'zax) Merini uslubida bir-birini inkor etmaydi, aksincha, inson ruhiyatining yaxlitligini ifodalash uchun bir nuqtada birlashadi. Bu esa shoira she'riyatining o'zbek tilidagi tarjimalarida nafaqat so'z muvofiqligini, balki mazkur konnotativ ma'no qatlamlarini, matn ortidagi "og'riq semantikasini" qayta yaratishni talab etadi.

Xulosa. Maqolada ilgari surilgan xulosalar shuni tasdiqlaydiki, Merini ijodini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki **kognitiv tilshunoslik** va **psixolingvistika** fanlari uchun ham yangi manbalar ochadi. Diniy metaforalarning individuallasuvi jarayoni tilning inson ichki olamini modellashtirishdagi cheksiz imkoniyatlarini namoyon etadi. Kelgusida ushbu tadqiqot yo'nalishini kengaytirish, xususan, Merini she'riyatidagi diniy obrazlarning o'zbek kitobxonlari tomonidan qabul qilinish (retseptsiya) jarayonlarini o'rganish, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasidagi muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi **takliflarni** ilgari surish maqsadga muvofiq:

Avvalo, zamonaviy Italiya she'riyatini, xususan, Alda Merini ijodini o'rganishda lingvopoetik va psixolingvistik yondashuvlarni birlashtirish lozim. Bu talabalarga matnning nafaqat shakliy tuzilishini, balki uning chuqur falsafiy-ruhiy qatlamlarini anglashga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, tarjima jarayonida diniy metaforalarning o'zbek tili muhitidagi lingvokulturologik muqobillarini topishda "semantik transformatsiya" usulidan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida Merini ijodi misolida G'arb diniy she'riyatining milliy she'riyatimizdagi tasavvufiy ramzlar bilan qiyosiy tahlilini yo'lga qo'yish qiyosiy adabiyotshunoslikning yangi qirralarini ochishi mumkin.

Kelgusida shoira asarlarining diniy qatlamini yanada chuqurroq tadqiq etish maqsadida maxsus ilmiy-izohli lug'atlar yaratish va bu orqali italyan poetik tafakkurini o'zbek o'quvchisiga yanada yaqinroq yetkazish gumanitar fanlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Borgna E. Eugenio Borgna racconta Alda Merini. – Milano: Feltrinelli, 2002.
2. Di Lucchio P. La parola ferita. Studio sull'opera di Alda Merini. – Roma: Carocci, 2008.
3. Rosa G. Alda Merini: La poetessa dei Navigli. – Roma: Carocci Editore, 2011.
4. Merini A. Vuoto d'amore. – Torino: Einaudi, 1991.
5. Merini A. La Terra Santa. – Milano: Scheiwiller, 1984.

6. Merini A. L'altra verità. Diario di una diversa. – Milano: BUR Rizzoli, 2010.
7. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
8. Komilov N. Najot yo'li. – Toshkent: Sharq, 2001.
9. <https://www.treccani.it/>.
10. <https://aulalettere.scuola.zanichelli.it/>.

